

## SAMARQAND VILOYATIDA KICHIK BIZNESNI MOLİYALASHTIRISH HOLATINING TAHLILI

Ilmiy rahbar: **Sharipova Nigina Jorakulovna**  
Samarqand Iqtisodiyot va Servis instituti o'qituvchisi  
**Aliboyev Lazizjon**  
Samarqand Iqtisodiyot va Servis institute  
BI-220 guruh 4-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy faoliyati ko'rsatkichlarini hisoblash va tahlil qilish, moliyalashtirish manbalari va kredit bilan taminlash masalalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimida foyda hajmi va rentabellik darajasini hisoblash va tahlil qilish usullarining mazmun mohiyatini yoritish va ularni talabalarga o'rgatish yuzasidan so'z boradi..

**Kalit so'zlar:** moliyaviy faoliyat, moliyaviy ahvol, moliyaviy natija. foyda. zarar. Moliyalashtirish, kredit, yalpi foyda. sof foyda. rentabellik.

Hozirgi kunda rivojlanib borayotgan har bir jamiyatda beznis va uning ahamiyati beqiyosdir. Shuningdek yurtimiz va uning har bir viloyatida ham kichik beznis va xususiy tadbirkorlikka alohida etibor qaratilib ko'plab imkoniyatlar yaratilmoqda,. Mintaqamiz iqtisodiyotini yuksaltirish, kichik biznesning rolini oshirish, uning tutgan o'rni, uni qo'llab – quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Mahalliy hokimiyat organlari hududining moliyaviy va moddiy imkoniyatlari, aholining huquqiy ehtiyojlarini, mintaqa faoliyat sohalari va mulkchilik shaklidagi resurslardan samarali foydalanish yo'llarini aniqlab ularga ijobiy yondashgan holda rivojlantirib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2018-yilning dekabrda Oliy majlisga murajatnomasida so'zlagandek; “Har-bir oila –tadbirkor”, “Yoshlar-kelajagimiz”- kabi dasturlar doirasida 2 trillion so'mga yaqin mablag' ajratilib, joylarda 2 ming 600 dan ortiq biznes loyihalari amalga oshirildi. 2019 – yildan boshlab, soliqlarning pragnozdan ortig'i bilan bajarilgan qismi hududlarda 5,5 trillion so'm qo'shimcha mablag' qoldirildi. Bu 2018- yilga nisbatan 6 baravar, 2016 – yilga nisbatan esa 32 baravar ko'pdir. Tadbirkorlik tizimlarini rivojlantirishda mahalliy hokimiyatning ta'sir qilish imkoniyatlaridan foydalanish bo'yicha mamlakatimiz tajribasining ko'rsatishicha, keyingi yillarda tadbirkorlikni yetarli darajada jiddiy rivojlantirish ta'minlandi. 2018 – yil 1- yanvar holatiga ko'ra mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 285,5 mingta korxonalarining 229,6mingdan ortig'i kichik biznes sub'ektlari hisoblanadi va ularning 10 foizi qurilish sohasida faoliyat olib borayotgan kichik korxonalaridir. Tashkiliy – huquqiy nuqtai nazardan olib qaraganda jami korxonalarining 7,5-8 mingtasi xususiy korxonalar hisoblanadi. Hududlar kesimida tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishida Samarqand viloyati alohida kasb etadi. Toshkent shahridan keyingi o'rinni egallaydi. Viloyatda ro'yxatdan o'tgan korxonalar va mikrofirmalar soning o'sishi ta'minlanmoqda. Xususan, 2015 yil 1 yanvar holatiga ularning soni ancha ko'paygan. Hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirishda mahalliy hokimiyat organlarining rolini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora – tadbirlar natijasida 2018 yil 1 yanvar holatiga ko'ra maskur ko'rsatgich ancha oshganini ko'rish mumkin. Kichik korxonalarini ochishda kuzatilgan asosiy muammolar zarur binolarning etishmasligi, kredit olishdagi muammolar yoki yuqori foizli kredit qo'yilmalari orqali vujudga keladi. Buni inobatga olgan holda O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha har yili turli dasturlar ishlab chiqilishi va tasdiqlanishiga qaramasdan bugungi kunda kichik biznesni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan kamchiliklar ham mavjuddir. Fikrimizcha yuqorida keltirilgan muammolarni vujudga kelishining asosiy sabablaridan biri – bozor tizimi asosini tashkil etuvchi tadbirkorning manfaatlarini chetlab o'tgan holda, yuqoridan ma'muriy buyruqbozlik asosida bozor iqtisodiyotiga o'tish holatlarining uchrashidir. Kichik biznesni tashkil etish uchun dastlabki natijalarni shakllantirish manbalarini aniqlash bilan bog'liq

kamchiliklarni e'tirof etish kerak. Mamlakatimizda ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarni va bevosita kichik biznes hamda tadbirkorlikni rivojlantirish borasida tadqiqot olib borgan boshqa bir olimlar esa, o'z ilmiy ishlarida iqtisodiyotning mintaqaviy tarmoq, infratuzilma ob'ektlarini modellashtirish nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etishgan. Bugungi kunda mamlakatimiz olimlari tomonidan respublikamizda kichik biznesni rivojlantirish tendensiyalarini ilmiy va amaliy jihatdan tadqiq etish borasidagi tadqiqotlar etarli emas yoki bo'lsa ko'pchiligi tadbirkorlikning nazariy muammolariga bag'ishlangandir. Shu sababli, hozirgi kunda respublikamizda kichik biznesni tasniflashni takomillashtirish, rivojlantirish tendensiyalarini aniqlash va baholash, iqtisodiyot va mulk sektorlari rivojlanishidagi o'zaro a'loqalar hamda nomutanosibliklarni aniqlash, kichik biznesni rivojlanishidagi institutsional o'zgarishlarni ilmiy tahlil etgan holda ustivor yo'nalishlarni aniqlash kabi ilmiy – nazariy muammolar, kichik biznes genezmisi va rivojlantirish qonuniyatlarini, antimonopol siyosat, raqobatchilik muhiti va mexanizmlari bilan bog'liqda tuzilgan tahlil etish, rivojlangan davlatlarda iqtisodiyot tarmoqlari taraqqiyoti barqarorligini baholashda samarali qo'llanilayotgan usul va modellar yordamida respublikamizda kichik biznesning iqtisodiyot tarmoqlaridagi rivoji hamda istiqbollarini baholash, kichik biznes sub'ektlari uchun iqtisodiyot tarmoqlari jozibadorligini zararsizlik tahlili yordamida aniqlash kichik biznes sub'ektlari hayotiy siklini uzaytirish, ularni barqaror va mutanosib rivojlanishini monitoring qilib borishni ta'minlaydigan qo'shimch statistik ko'rsatkichlarni ishlab chiqish, respublikamiz mintaqalarida kichik biznesni rivojlantirish tendensiyalarini aniqlash kabi ilmiy - amaliy muammolarni hal qilish va amaliy tadbiq etishga haqiqiy zarurat tug' ilmoqda. Mamlakatimizda ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarni va bevosita kichik biznes hamda tadbirkorlikni rivojlantirish borasida tadqiqot olib borgan boshqa bir olimlar ese, o'z ilmiy ishlarida iqtisodiyotning mintaqaviy tarmoq, infratuzilma ob'ektlarini modellashtirish nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etishgan. Bugungi kunda mamlakatimiz olimlari tomonidan respublikamizda kichik biznesni rivojlantirish tendensiyalarini ilmiy va amaliy jihatdan tadqiq etish borasidagi tadqiqotlar etarli emas yoki bo'lsa ko'pchiligi tadbirkorlikning nazariy muammolariga bag'ishlangandir. Shu sababli, hozirgi kunda respublikamizda kichik biznesni tasniflashni takomillashtirish, rivojlantirish tendensiyalarini aniqlash va baholash, iqtisodiyot va mulk sektorlari rivojlanishidagi o'zaro a'loqalar hamda nomutanosibliklarni aniqlash, kichik biznesni rivojlanishidagi institutsional o'zgarishlarni ilmiy tahlil etgan holda ustivor yo'nalishlarni aniqlash kabi ilmiy – nazariy muammolar, kichik biznes genezmisi va rivojlantirish qonuniyatlarini, antimonopol siyosat, raqobatchilik muhiti va mexanizmlari bilan bog'liqda tuzilgan tahlil etish, rivojlangan davlatlarda iqtisodiyot tarmoqlari taraqqiyoti barqarorligini baholashda samarali qo'llanilayotgan usul va modellar yordamida respublikamizda kichik biznesning iqtisodiyot tarmoqlaridagi rivoji hamda istiqbollarini baholash, kichik biznes sub'ektlari uchun iqtisodiyot tarmoqlari jozibadorligini zararsizlik tahlili yordamida aniqlash kichik biznes sub'ektlari hayotiy siklini uzaytirish, ularni barqaror va mutanosib rivojlanishini monitoring qilib borishni ta'minlaydigan qo'shimch statistik ko'rsatkichlarni ishlab chiqish, respublikamiz mintaqalarida kichik biznesni rivojlantirish tendensiyalarini aniqlash kabi ilmiy - amaliy muammolarni hal qilish va amaliy tadbiq etishga haqiqiy zarurat tug' ilmoqda.v

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining xo'jalik faoliyatining asosiy qismi bo'lib, moliyaviy faoliyati hisoblanadi. Moliyaviy faoliyat korxonaning moliyaviy holati bilan moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Korxonaning moliyaviy holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar bo'lib, moliyaviy barqarorligi, moliyaviy mustaqilligi, to'lovga qodirligi, o'z mablag'lari bilan ta'minlanganligi, debitorlik va kreditorlik qarzlari kabilar ko'rsatkichlar hisoblanadi.. Korxonaning moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlarga Mahsulot (ish, xizmat) larni sotishdan olinadigan yalpi foyda (zarar), asosiy ishlab chiqarish faoliyatining foydasi (zarari), umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari), soliqlar to'langunga qadar bo'lgan foyda (zarar) va hisobot davrining sof foydasi (zarari) kiradi.. Ushbu ko'rsatkichlar darajasini o'rganish va tahlil etish hamda ularning natijalarini umumlashtirish orqali korxonaning moliyaviy faoliyatiga ga baho beriladi. Shuning uchun ham ushbu ko'rsatkichlarni o'z vaqtida tahlil qilib turish – korxonaning moliyaviy axvolini yaxshilash, foydasini ko'paytirish hamda iqtisodiyotini mustahkamlash uchun shart sharoit yaratadi. Shu nuqtai nazardan

moliyaviy faoliyati tahlilini o'z vaqtida samarali o'tkazib turish nixoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Korxonada moliyaviy ahvoriga baho berishda asosan quyidagi moliyaviy koeffitsientlar ko'proq qo'llaniladi. 1. Moliyaviy barqarorlik koeffitsienti 2. Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti. 3. To'lovga qodirlik koeffitsienti . 4. O'z va qarz mablag'larining o'zaro nisbati koeffitsienti . 5. O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsienti . Biz ushbu mavzuda to'lovga qodirlik koeffitsiyentining tahlilini bayon kildik. Qolganlarini mustaqil o'qishga qoldirdik. Xo'jalikning moliyaviy holatiga baho berishda ushbu koeffitsiyentlar muhim rol o'ynaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022 yil Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2018 yilning 18-dekabrida Oliy Majlisga murajatnomasi uza.uz.
3. Sharipova N. D., Asadova S. D. THE ROLE OF BANKS IN THE MODERN MONETARY SYSTEM //Procedia of Theoretical and Applied Sciences. – 2023. – T. 6. – C. 55-62.
4. Шарипова Н.Д., Чориев Я.А. СТРАХОВАНИЕ БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ //International Journal of Advanced Research in Education, Technology and Management. -2023- T.2. - C. 92-99.
5. Sharipova N. D., Jurayev I. S. THEORETICAL FOUNDATIONS OF MONETARY POLICY// INTERNATIONAL JOURNAL OF INNOVATIONS IN ENGINEERING RESEARCH AND TECHNOLOGY. – 2023. -T. 10. -C. 171-173.
6. Sharipova N. D., Aliboyev L.Sh. THE IMPORTANCE OF ANTI-INFLATIONARY POLICY AND INFLATION TRADING IN UZBEKISTAN// INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY JOURNAL FOR RESEARCH & DEVELOPMENT. -2023. -T. 10. -C. 92-94.
7. Istamova Muhabbat Isroilovna, Fozilov Shohnur Rustam ugli. ECONOMIC MECHANISMS OF THE PROCESSES OF STAFFING THE SERVICE SECTOR. <https://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/884>.
8. 2.Istamova Muhabbat Isroilovna, Toshpolatov Shoxrux. IQRO JURNALI. <https://wordlyknowledge.uz/index.php/iqro/article/view/3677>